

## O'ZBEKISTON DAVLAT TABIAT MUZEYINING YARATILISH TARIXI VA SHAKLLANISHI



**Nilufar Sayidova**  
1 bosqich tayanch doktoranti  
Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn  
instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-02-06>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda eng katta tabiiy kolleksiyalarga ega hisoblangan tabiat muzeyining yaratilishi, noyob to`plamlarining shakllanish bosqichlari bayon qilingan. Bundan tashqari XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashkil qilingan ilmiy ekspeditsiyalar haqida ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tabiat muzeyi, geologiya, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya, Birinchi o‘zbek muzeyi , ekspeditsiya, ilmiy fond, ekspozitsiya, kolleksiya.

**Аннотация:** В данной статье описывается создание музея природы, который считается обладателем крупнейших природных коллекций в Центральной Азии, и этапы формирования его уникальных коллекций. Кроме того, приводятся сведения о научных экспедициях, организованных в конце XIX - начале XX века.

**Ключевые слова:** Музей природы, геология, география, ботаника, зоология, минералогия, Первый Узбекский музей, экспедиция, научный фонд, экспозиция, коллекция.

**Abstract:** This article describes the creation of the nature museum, which is considered to have the largest natural collections in Central Asia, and the stages of its unique collections. In addition, information about the scientific expeditions organized at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century is given.

**Keywords:** Museum of Nature, geology, geography, botany, zoology, mineralogy, First Uzbek Museum, expedition, scientific fund, exposition, collection.

XXI asrda jamiyatimizni yangilash, erkin fuqaroni tarbiyalash eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek xalqi milliy o‘zligini anglab, tarixi va madaniyatini chuqur o‘rganib, baholashga kirishdi.

Buyuk maqsad sari dadil qadam tashlayotgan O‘zbekiston Respublikasida muzeylar yirik ilmiy-ma'rifiy va madaniy markazlardan hisoblanib, xalqimizning boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o‘rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqlol ruhida tarbiyalash, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga badiiy go‘zallik va qadimda asos solingan ajodolarimiz merosiga nisbatan g‘urur va fikr tuyg‘usini singdirish, zamon talabiga aylandi.

O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyi Markaziy Osiyoning dastlabki ilmiy ma'rifiy muassasalaridan biri hisoblanadi. Avvallari “Toshkent muzeyi” nomi bilan atalgan bu muassasa 1875 yili tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya bilan qiziquvchilar tomonidan tashkil etilgan. U faqat tabiat shaydolari bo‘lgan shaxslarning xayru-ehsonlari hisobiga faoliyat ko‘rsatib, bir necha yillar mobaynida mukammallashtirildi. Muzey tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, olimlardan A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.F.Oshanin, V.V.Bartold va boshqalar Turkistonni atroflicha o‘rgangan rus ziyorilari edi. Ularning asarlaridan geologiya, geografiya, botanika, zoologiya, mineraliya sohalari qatorida numizmatika, tarix, etnografiyaga oid ma'lumotlar, qadimiylardan yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar ham mavjud edi. Ilmiy jamiyatlar, muassasalar va ayrim mahalliy shaxslar o‘z to‘plamlarini Turkiston o‘lkasi mineralogiyasi, zoologiyasi, numizmatika, etnografiyasiga oid ajoyib ashyo va buyumlar bilan to‘ldirib bordilar.

Natijada mazkur tabiiy kolleksiyalarni birlashtirish va ular asosida muzey tashkil etish masalalari ilmiy jamoatchilik tomonidan kun tartibiga qo'yildi. A.R.Fedchenkoning Turkiston General - gubernatoriga yozgan axborotida: "Turkistonni muvaffaqiyatlari rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish lozim, muzey esa bu uchun eng yaxshi vositadir", - deb yozadi.

1876 yilda muzeylarni komplektlash bo'yicha yig'ilishga ilmiy jamiyatga a'zo bo'lgan barcha olimlar taklif etiladi. Yig'ilish qaroriga ko'ra Turkistonda ilk muzey ochish fikri ma'qullanadi. Turkistonda muzeylar qurulishining boshlanishi dastlabki muzeylar tashabbuskorlari va yaratuvchilari A.P. Fedchenko, V.F.Oshanin, V.V.Bartold kabi tadqiqotchi olimlarning nomi bilan bog'liqdir.

Oktyabr to'ntarishidan keyin muzey fondlarini to'ldirish, davlat tomonidan olib boriladigan bo'ldi. Muzey ishini Turkiston Xalq universiteti boshqarib bordi. U vaqtida muzey direktori lavozimiga atoqli zoolog, ajoyib sayyoh N.A.Zarudniy tayinlangan edi.

O'sha paytda "Turkiston xalq muzeyi" deb nom olgan muzey 1919 yil fevral oyida general – gubernatorning qarorgohi hisoblangan, Oq uyga ko'chirildi. Turkiston xalq muzeyi 1921 yilda muzey va qadimgi yodgorliklarni saqlash, san'at va tabiat ishlari bo'yicha qo'mita tasarrufiga o'tkazilib, O'rta Osiyo Bosh muzeyi nomini oldi. Uning ekspozitsiya va fondlari geologiya, geografiya, zoologiya, entomologiya, botanika, arxeologiya va numizmatika, antropologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy kabi bo'limlardan iborat bo'lgan. Birinchi o'zbek muzeyi to'g'risidagi nizom 1925 yilning 20-fevralida O'rta Osiyo komsaris tomonidan tasdiqlandi. Qishloq xo'jaligi va o'lka xo'jalik kooperatsiyalarini, shuningdek bu sohani rivojlantirish uchun muzey gerbariyalar, urug'lar, qayta ishlangan ozuqalar, qishloq xo'jalik sohasidagi ilmiy tajribalar natijasida hosil bo'lgan materiallarni to'plash, sotib olishni ko'zda tutgan edi. Bularidan tashqari qishloq xo'jaligi mehnat qurollari, moshinalarining modellarini ham yig'a boshladи. Muzey bo'limlari soni va turlari ham osha bordi. 1930 yillardagi ma'lumotlarga ko'ra muzey Qishloq xo'jaligiga qarashli barcha sohalar, Hunarmandchilik sanoati bo'limi, Umumiy ta'lim xarakteridagi tabiat tarixi kabi bo'limlardan iborat bo'lgan .

1930 yildan tabiat bo'limlari, qishloq xo'jaligi muzeyi hamda zoologiya bog'i bilan birga O'rta Osiyo tabiat muzeyi ishlab chiqarish kuchlari(SAMPPS)nomini oldi.

1935 yili yanvar oyida SAMPPSning tabiat sho'basi O'zbekiston Davlat tabiat muzeyiga aylantirilgan. Ilgarigi O'lkashunoslik muzeyi nomi bilan ma'lum bo'lgan bu muzey shundan so'ng Tabiatshunoslik muzeyi sifatida qayta tashkil etilib, Toshkent shahrining Sag'bon ko'chasidagi 16 uyga joylashtirilgan.

Muzeysda tabiiy fanlarni keng tashviqot qilish maqsadida o'sha yillarda Yerning poliografiysi, unda hayotning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi hamda va umumiyligi biologiya ekspozitsiyalarining yangi bo'limlari ochilgan edi. Muzey ekspozitsiyalari "Paxtakor voha tabiat", "O'zbekiston lalmikorligi", "O'zbekiston mevali o'simliklari" kabi bo'limlar bilan boyitilgan edi.

1933 yilda Markaziy muzeylar boshqarmasi tomonidan yangi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu katta xarakterga ega yordam edi. Qonunga asosan, ekspozitsion planlarni taqriz qilish, ilmiy tematikalarni, noyob materiallar, suratlar, etiketkalar, manekenlar, mulyajlar, maketlar, tulumlar, botanik va zoologik eksponatlar bilan muzeylar fondini boyitish kerak edi. Bundan tashqari mahalliy muzey fondlarini ro'yxatga olish, hisobini yuritish, eksponatlarni saqlash va ularni ommaga namoyish etish bo'yicha ko'plab ishlar rejalashtirilgan edi .

Muzey xodimlari tomonidan o'quv-ta'limiyo sohada bir qancha ishlar olib borilib, 1937 yilda muktab xonasi tashkil etilgan va unda muzey ilmiy xodimlari yordamida ilmiy ustaxonalar tashkil etilib, o'quv-ta'limiyo va boshqa kolleksiyalar vujudga keltirilgan edi.

1944 yilda O'zbekiston davlat tabiat muzeyi boy ilmiy fondlarni saqlaydigan muassasa sifatida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tabiat muzeyi deb nomlandi.

Muzeyning O'zbekiston Fanlar Akademiyasi ixtiyoriga o'tishi munosabati bilan uning oldida O'zbekiston flora va faunasini o'rganish va tabiat resurslaridan xo'jalikda foydalanish bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarish vazifasi turardi. Shu maqsadda muzey ilmiy xodimlarining bir qismi fundamental ilmiy muammolar bilan shug'ullanishga jalb etildi.

1960 yil may oyida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Biologiya bo'limi muzeyning O'zbekiston tabiatini haqidagi ekspozitsiyalari ilg'or landshaft uslubi asosida qayta jihozlashning istiqbolli rejasini tasdiqladi. Chunki muzeydagi ayrim qotirilgan hayvonlar, o'simlik gerbariyatlari va ba'zi bioguruhlardan iborat ekspozitsiyalar to'liq bir ko'rgazma mashg'uloti va majmuasini tashkil etmas, bu esa muzey tomoshabinlarida to'la o'lka to'g'risida qiziqarli boy ta'assurotlar qoldirmasdi.

Besh yil davomida muzeyning ilmiy xodimlari bir qancha rassomlar bilan hamkorlikda respublikamiz tabiatini to'la aks ettiruvchi yangi ekspozitsiya yaratdilar. Ilmiy va badiiy jihatdan yuksak darajada bajarilgan katta dioramalarda O'zbekistondagi qum dashtlar, to'qayzorlar, tog' etaklari, turli xil o'tli dashtlar, tog'larning mevali daraxt o'rmonlari, archazorlari, baland tog'lar lanshaftlarining tabiatini yaqqol aks ettirildi. Muzey dioramalarini vujudga keltirish uchun alohida tumanlarga sayohatlar uyushtirildi. U yerlarda ilmiy xodimlar tabiiy manbalar to'plash bilan shug'ullangan bo'lsalar, rassomlar etyudlar chizdilar.

Ana shu maqsadda 1960 yildan to 1966 yilgacha Qizilqum, Amudaryo va Sirdaryo to'qayzorlari, Turkiston tizma tog'lari etaklari, Farg'ona va Piskent tizma tog'larining mevali daraxt o'rmonlari, Turkiston va Chotqol tizma tog'larining baland tog'lari va boshqa tumanlarga ilmiy sayohatlar uyushtirildi.

Muzey 1963 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tasarrufidan chiqarilib, O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. Shu davrdan boshlab muzey ilmiy xodimlarining asosiy diqqat e'tiborini ilmiy-ma'rifiy va madaniy ommaviy ishlarni kuchaytirishga qaratdilar.

Muzeyning ilmiy xodimlari qishloq aholisi o'rtasida tabiat to'g'risidagi bilimlarini keng targ'ibot qilish, aholining keng qatlamini muzeylarga jalb qilish maqsadida har yili joylarda muzey ko'chma ko'rgazmasini namoyish qilardilar, ekspozitsiya haqida ma'ruza o'qirdilar. O'tgan asrning oltmishinchi yillar oxirida shaharning turli korxona va muassasalarida ilmiy xodimlar tomonidan o'qilgan ma'ruzalar soni ancha ortdi. Amalga oshirilgan ishlardagi muvaffaqiyatlari uchun muzey bir necha bor davlat tomonidan munosib taqdirlangan.

1967 yili mamlakatda o'tkazilgan muzeylar ko'rigida birinchi o'rinni egalladi va muzeyga "O'zbekistondagi eng yaxshi muzey unvoni berildi".

Keyingi davrda muzey ekspozitsiyasiga o'zgartirishlar kiritilib yanada boyitildi. Muzeyning asosiy vazifalari aholining keng ommasi o'rtasida tabiatni o'rganish, o'quvchilarning tabiatshunoslik sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish, jumladan, o'lka tabiatini o'rganish ishida yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ko'rsatib o'tilgan vazifalar muzey ichida mavzuiy ekspozitsiyalar tashkil etish va muzeydan tashqarida keng ilmiy-ma'rifiy ishlarni olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 17 - noyabr

02-11-47-sonli Bayonnomasi, Toshkent shahar hokimiyatining 2004 yil 18 noyabr 01-B-546-sonli Bayonnomasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2004 - yilning 13- dekabrdagi 325-buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 dekabrdagi "O'zbekiston davlat tabiat muzeyini bino bilan ta'minlash maqsadida" gi 600-sonli qaroriga asosan, Olmazor tumani A.Niyozov ko'chasi 1-uy manzilida joylashgan binoga ko'chib o'tdi. Bu yerda muzey binosi ikki qavatni tashkil etgan. Ommaviy axborot vositasi sifatida muzeyning asosiy maqsadi, har bir tomoshabinni O'zbekiston tabiatini bilan yaqindan tanishtirish, qishloq xo'jaligida erishilayotgan yutuqlar hamda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni tomoshabinlarga misollar orqali yetkazishdir.

Namunadagi ekspozitsiya orqali tomoshabinlarga yurtimizning tabiatini, flora va faunasini bilan birgalikda tabiiy bilimlar haqida keng tushuncha beradi.

Bulardan tashqari O'zbekiston davlat tabiat muzeyi boy ilmiy zahiraga ega. Unda geologiya, botanika, zoologiya va entomologiya kolleksiylari mavjud. Zaxira materiallari birinchidan, muzeyning ekspozitsiyalarini tuzish va to`ldirish uchun boshlang'ich va qo'shimcha materiallalar bo`lib xizmat qiladi. Ikkinchidan esa muzey sohasi mutaxassislari uchun ilmiy manba

hisoblanadi. Zero, har qanday muzeyning ilmiy zaxirasi qanchalik boy bo`lsa, u ilm-fan uchun shunchalik katta ahamiyatga ega bo`ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 160 b
2. Исмаилова Ж.Х, М.С.Мухамедова. Музей предметларининг атрибуция ва экспертизаси. Ўкув қўлланма. - Т.: PREMER PRINT, 2013
3. Бекмуродов М., Рашидова М. Музейшунослик. – Тошкент, Ворис Али, 2006. – 102 б.
4. Гнедовский М.Б. Музейная экспозиция // Советский музей. 1987. №. 6
5. Коллекцияларни хужжатлаштириш /Анна Паолини таҳрири остида. – Париж: ЮНЕСКО, 2007. – 36 б.
6. Поляков Т. Музейная экспозиция // Мир музея 2007. № 1.
7. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.
8. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981. – 270 б.
9. Содиқова Н. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. Тошкент, 1999. – № 1–2. – Б. 16–23.
10. “Muzey bo`ylab sayohat” (Yo`l ko`satkich). \ O`zbekiston davlat tabiat muzeyi 2017 йил